XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- yanvar holatiga 3 560,6 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 78,3 ming kishiga ya'ni 2,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 524,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 2 036,4 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2023- yil yanvar-dekabr oylarida

-Aholi soni **78,3 ming kishiga** ko'paydi.

-Tirik tug'ilganlar soni **101,9 ming nafarni** tashkil etdi.

-Vafot etganlar soni **16,4 ming nafarni** tashkil etdi.

-Nikohlar soni **30,9 ming nafarni** tashkil etdi.

-Ajrimlar soni **3,4 ming nafarni** tashkil etdi

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida doimiy aholi soni
3 482 318 kishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

101,9 *ming bola*
Tug'ilganlar soni

16,4 *ming kishi*
O'lganlar soni

9,2 *ming kishi*
Ko'chib kelganlar soni

16,3 *ming kishi*
Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 560 633 kishi
(2024- yilning 1- yanvar holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni[1)]
(2024- yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	*shu jumladan:*	
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*
Qashqadaryo viloyati	3 560,6	1 524,2	2 036,4
shaharlar:			
Qarshi sh.	295,6	295,6	-
Shahrisabz sh.	147,2	147,2	-
tumanlar:			
G‘uzor	222,2	52,3	169,9
Dehqonobod	159,5	30,4	129,1
Qamashi	293,1	69,7	223,4
Qarshi	272,1	98,6	173,5
Koson	312,1	164,0	148,0
Kitob	282,0	105,1	176,9
Mirishkor	129,6	48,8	80,8
Muborak	93,4	74,3	19,1
Nishon	166,6	100,1	66,6
Kasbi	213,0	82,3	130,7
Ko‘kdala	188,7	29,7	159,0
Chiroqchi	267,9	77,1	190,8
Shahrisabz	235,1	56,7	178,4
Yakkabog‘	282,5	92,2	190,3

[1)] *dastlabki ma'lumot*

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni
(1- yanvar holatiga ming kishi)

	2022- y.	*2023- y.*	*O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da*
Qashqadaryo viloyati	**3 482,3**	**3 560,6**	**102,2**
shaharlar:			
Qarshi sh.	288,9	295,6	102,3
Shahrisabz sh.	144,8	147,2	101,7
tumanlar:			
G’uzor	217,3	222,2	102,3
Dehqonobod	156,3	159,5	102,0
Qamashi	286,7	293,1	102,2
Qarshi	265,6	272,1	102,4
Koson	304,7	312,1	102,4
Kitob	276,3	282,0	102,1
Mirishkor	126,8	129,6	102,2
Muborak	91,9	93,4	101,6
Nishon	162,7	166,6	102,4
Kasbi	208,4	213,0	102,2
Ko‘kdala	183,3	188,7	102,9
Chiroqchi	260,7	267,9	102,8
Shahrisabz	231,2	235,1	101,7
Yakkabog‘	276,7	282,5	102,1

Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022- y.	2023- y.[1]	o‘sish, kamayish	2022- y.	2023- y.[2]
Tug‘ilganlar	98 279	101 852	3 573	28,5	28,9
O‘lganlar	17 017	16 424	-593	4,9	4,7
Tabiiy o‘sish	81 262	85 428	4 166	23,6	24,2
Nikohlar	32 189	30 908	-1 281	9,3	8,8
Ajralishlar	3 471	3 376	-95	1,0	1,0

Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 101 852 kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (98 279 kishi) nisbatan 3 573 kishiga yoki 3,6 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 28,9 promilleni tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (28,5 promille) nisbatan 0,4 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



[1] *dastlabki ma'lumot*
[2] *dastlabki ma'lumot*

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Koson tumanida 29,3 dan 30,2 promillega va Nishon tumanida 28,5 dan 30,4 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

Tug‘ilish. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 101,9 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 28,9 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko‘payganligi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 28,5 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo'yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)



O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 16 424 kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (17 017 kishi) nisbatan 593 kishiga yoki 96,5 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,9 promille).

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari



O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Dehqonobodda (5,8 dan 6,7 promillega), Kosonda (3,7 dan 4,8 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 30,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,8 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti



(2023- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

Nikohdan ajralishlar. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

2023- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar-dekabr oylari FHDYO organlarida 30 908 ta nikohlar va 3 376 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 8,8 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 9,3 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022- y.	*2023- y.*	*2022- y.*	*2023- y.*
Qashqadaryo viloyati	**32 189**	**30 908**	**3 471**	**3 376**
shaharlar:				
Qarshi sh.	2 487	2 354	462	451
Shahrisabz sh.	1 075	1 029	259	253
tumanlar:				
G’uzor	2 143	2 042	132	162
Dehqonobod	1 528	1 395	81	131
Qamashi	2 782	2 652	254	237
Qarshi	2 559	2 389	346	275
Koson	2 877	2 873	174	176
Kitob	2 388	2 409	331	289
Mirishkor	1 132	1 064	91	92
Muborak	864	839	81	86
Nishon	1 603	1 552	187	183
Kasbi	1 898	2 029	176	156
Ko‘kdala	-	1 739	-	83
Chiroqchi	4 282	2 347	338	217
Shahrisabz	2 054	1 901	256	244
Yakkabog‘	2 517	2 294	303	341

Migratsiya[1] (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 150 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 16 263 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

		2022- yilning yanvar-dekabr oylarida	2023- yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	9 138	9 150
	Ko'chib ketganlar	16 427	16 263
+-	Migratsiya saldosi	-7 289	-7 113

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 7 113 kishiga (2022- yilning shu davrida minus 7 289 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 1 168), Yakkabog' (minus 933) va Shahrisabz (minus 817) tumanlarida kuzatilgan.

Yanvar-dekabr oylarida

Soni, *ming kishi*





[1] *shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda*
[2)] *dastlabki ma'lumot*

Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2024- yil 1- yanvar holatiga 295,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 6,7 ming kishiga yoki 2,3 % ga o‘sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida		2023- yilning yanvar-dekabr oylarida
	Tug‘ilish	
27,0		26,4

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,7 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 26,4 promilleni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida 27,0 promille bo‘lgan).

FHDYO organlarida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 354 ta nikoh va 451 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,1 promilleni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2022- yilning mos davrida 8,7 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,5 promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan teng. 2022- yilning mos davrida 1,6 promille bo‘lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-dekabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)